IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: EE21443682

**“TASDIQLAYMAN”**

**Karmana tumani hokimi o‘rinbosari,**

**Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i**

**N.Shomiyeva**

**2026 yil yanvar**

**Oilalarni mustahkamlash, oilaviy ajrimlarning oldini olishga qaratilgan**
**YO‘L XARITA**

| T.r. | Amalga oshiriladigan choratadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Muddati | Ijro uchun mas’ullar |
|---|---|---|---|---|
| **Mahallalarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar** | | | | |
| 1. | **“Nikoh shartnomasining afzalliklari va ahamiyati”, “Oilada mas’uliyat va majburiyat”** mavzularida mahallalarda, mehnat jamoalarida targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish. | 1. Adliya bo`limi tomonidan nikoh shartnomasi, oilaviy munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan targ‘ibot materiallarini tayyorlash.<br>2. Mahallabay, korxona va tashkilotlar kesimida targ‘ibot o‘tkazish bo‘yicha reja-jadvallarni tasdiqlash.<br>3. Reja asosida targ‘ibot ishlarini tashkil etish. | 2026-yil yanvar<br>har chorak boshida<br>reja asosida | Oila va xotin-qizlar bo`limi, Adliya bo`limi, O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi,<br>tuman hokimligi, xotin-qizlar faollari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2. | Mahalla fuqarolar yig‘inlarida nikohlanuvchi shaxslar va ularning ota-onalari bilan suhbatlarni tashkil etish. Har haftaning **chorshanba kuni** mahallada **“Yosh oilalar bilan ishlash kuni”** deb belgilash. | 1.FHDYo organlari tomonidan nikohga ariza berganlarning ma’lumotlarini tegishliligi bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘inlariga yetkazish.<br>2. Mahallalardagi oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi tomonidan yosh oilalar va ularning ota-onalari bilan suhbatlarni tashkil etish. | Har haftada 2026-yil yanvardan onlayn haftaning chorshanba kuni | Oila va xotin-qizlar bo`limi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi , Adliya bo`limi, tuman Tibbiyot birlashmasi, Nuroniy jamg‘armasi, |
| | | 3. Mahallalarda nikoh to‘yi tadbirlarini ixcham va kamxarj o‘tkazish bo‘yicha **Qudalar suhbatlari**ni o‘tkazish.<br>4. Nikohlanuvchi shaxslarni o‘quvlar va tibbiy ko‘rikdan sifatli o‘tishi bo‘yicha monitoring olib borish. | | Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning tuman bo`limi, tuman hokimligi, xotin-qizlar faollari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3. | Mahallalardagi muammoli oilalarga manzilli huquqiy psixologik, ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish.<br>Bunda, oilalarni 3 ta toifa bo‘yicha belgilash:<br>-iqtisodiy qiynalgan oilalar;<br>-oilaviy ajrim yoqasidagi oilalar;<br>-tazyiq va zo‘ravonlik holatlari kuzatilgan oilalar. | 1. Belgilangan toifadagi oilalar uchun mas’ullarni biriktirish.<br>2. Oilaviy ajrim yoqasidagi oilalarga mahalladagi ibratli oila vakillari hamda nuroniylarni biriktirish. Ajrim sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish.<br>3. Tazyiq va zo‘ravonlik holatlari kuzatilgan oilalarga psixologlarni biriktirish.<br>4. Mahallalarda 3 ta toifadagi oilalar uchun huquqiy-psixologik xizmatlarni joriy etish. | 2026-yil yanvar doimiy | Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br>O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi, Ichki ishlar bo`limi, Adliya bo`limi,<br>Nuroniy jamg‘armasi,<br>tuman hokimligi,<br>xotin-qizlar faollari |
| 4. | Oilalarni mustahkamlash, oilaviy muammolarning oldini olish maqsadida mahalla fuqarolar yig‘inlarida **“Sovchilar maktabi”** loyihasini yo‘lga qo‘yish. | 1. Mahallalarda tashkil etiladigan **“Sovchilar maktabi”** loyihasi bo‘yicha konsepsiya va dastur ishlab chiqish.<br>2. Loyihani amalga oshirishda ibratli oila vakillari, nuroniylar, diniy soha vakillari, oqila ayollarni jalb etish.<br>3. Nikoh quradigan yoshlar va ularning ota-onalari bilan individual suhbatlar tashkil etish. | 2026-yil yanvar<br>2026-yil yanvar<br>doimiy | O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi, Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br>Nuroniy jamg‘armasi,<br>tuman hokimligi,<br>xotin-qizlar faollari |
| 5. | Har bir mahallada ko‘cha boshilar, oqila ayollar, “Mahalla | 1. Har bir mahallada salbiy holatlarning oldini olish, oilalardagi nizoli holatlardan tezkor | 2026-yil yanvar | O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi, Oila va xotin-qizlar bo`limi, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | yettiligi"dan iborat telegramm guruhlarini tashkil etish orqali **"Tezkor xabardorlik"** tizimini tashkil etish. | xabardor bo'lish maqsadida telegramm guruhini tashkil etish.<br>2. Har bir ko'chadagi muammoli holat bo'yicha ko'chaboshilar va oqila ayollar tomonidan tezkor xabar berish tizimini joriy etish.<br>3. "Mahalla yettiligi"ning tuman rahbarlari tomonidan "Tezkor xabardorlik guruhi"dagi ma'lumotlarga asosan manzilli ishlarni tashkil etish, xususan, nizoli oilalarning muammolarini hal etish choralarini ko'rish. | doimiy | Ichki ishlar bo`limi,<br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo`limi,<br>Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi,<br>tuman DSI<br>tuman hokimligi,<br>mahalla faollari |
| 6. | **Mahalla raisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi va "Oqila ayollar" harakati a'zolari, ko'cha boshilar** tomonidan xonadonbay yurish yoki murojaatlar orqali ajralish xavfi yuqori bo'lgan oilalarni aniqlash.<br>Asossiz ajrimlar, oilaviy ajrim yoqasidagi notinch, nizoli oilalar bilan tizimli ishlash. Bunda:<br>-nizoli oilalarni **aniqlash,** | 1. Har bir aniqlangan nizoli oila bo'yicha **"oila profili"**ni yaratib, unga mas'ul biriktirish va oila muammosi, iqtisodiy<br>va munosabat holatlari bo'yicha ma'lumotlarni elektron bazaga kiritish.<br>2. "Oqila ayollar" harakati a'zolari va faollar tomonidan nizoli oilalar bilan **xonadonbay** ishlash.<br>3. Har haftaning juma kunini mahallada **"Oila kuni"** deb belgilash va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi tomonidan nizoli oilalarning muammolarini hal etish choralarini ko'rish.<br>4. Ular uchun **"kuzatuv" tuzish, mas'ul belgilash** va xotin-qizlar faoli tomonidan xulosalarni elektron bazaga yuklab borish. | har haftada doimiy<br>har hafta juma kuni<br>har haftada<br>har haftada | Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br>Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi,<br>O'zbekiston Mahallalari uyushmasi,<br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo`limi,<br>Adliya bo`limi,<br>Din ishlari bo'yicha qo'mitaning tuman bo`limi,<br>"mahalla yettiligi",<br>tuman hokimligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | -tizimli **xabardorlik,**<br>-har bir nizoli oila bo‘yicha **“oila profili”**ni yaratish, unga oiladagi muammolarni kiritish;<br>-nizoli oilaning muammosiga ko‘ra **mas’ul belgilash** va **“kuzatuv dasturi”**ni ishlab chiqish;<br>- **monitoring** yuritish. | 5. Mahallada hal bo‘lmagan muammoli oilalarni tegishincha tuman va viloyatlardagi **“Oila va xotin-qizlar komissiyalari”**ga yo‘naltirish.<br>Har bir holat bo‘yicha monitoring yuritish, reyting tizimini joriy etish. | | |
| 7. | Ajrim yoqasidagi oilalarni mahallalarda tashkil etilgan o‘quvlarda o‘qitish. Bunda:<br>- ota-onalik mahoratini oshirish;<br>- pazandalik sirlarini o‘rgatish;<br>- gigiena qoidalari va kosmetologiya yo‘nalishlari bo‘yicha trenerlarni jalb qilish. | 1. Mahallalarda ayollar salohiyatini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish.<br>O‘quv kurslariga NNTlarni jalb qilish. | 2026-yil yanvardan doimiy | Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br>O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi, Nodavlat<br>notijorat tashkilotlar, tuman hokimligi |
| 8. | Aholi o‘rtasida **erta nikoh va erta tug‘ruq, yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikohlar**ning salbiy oqibatlari, | 1. Mutasaddi tegishli mutasaddi tashkilotlarning mas’ul hodimlaridan iborat bo‘lgan ishchi guruhini tuzish.<br>2. Ishchi guruhlar tomonidan: | 2025 yil dekabr | Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br>Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tuman bo`limi,<br>“Nuroniy” jamg‘armasi, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | oilani to‘g‘ri rejalashtirish haqida targ‘ibot tadbirlarini **“mahallabay”** samarali tashkil etish. | – tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha konsepsiya loyihalarini ishlab chiqish;<br>– maxsus **roliklar va bahs suhbatlar, ochiq**<br>– **muloqotlar, maqolalar mavzularini ishlab chiqish** va tasdiqlash;<br>– tadbirlar o‘tkaziladigan mahallalar ro‘yxatini shakllantirish;<br>– tadbir o‘tkazish reja-grafigini ishlab chiqish.<br>3. Tadbirlar haqida ta’lim muassasasi ning talaba va o‘quvchilarni xabardor qilish. | 2025-yil dekabr | Sog‘liqni saqlash bo`limi,<br>Maktabgacha va maktab<br>ta’limi bo`limi |
| 9. | Erta tug‘ruq qayd etilgan qizlarning **oilaviy sharoitini o‘rganish** va ularga manzilli yordam ko‘rsatish. Qizlarni ta’lim olishini davom ettirishiga ko‘maklashish. Ularning qiziqishlari asosida turli to‘garaklarga, o‘quv kurslarga jalb qilish va kasbhunarga o‘qitish. | 1.Erta tug‘ruq holati qayd etilgan, ota yoki onasiz yashayotgan hamda tarbiyasi og‘ir bo‘lgan o‘smir qizlarning mahallabay ro‘yxatini shakllantirish.<br>2.Shakllantirilgan ro‘yxat asosida qizlarning har oyda oilaviy muammolarini o‘rganish hamda ularni bartaraf etish tizimini yo‘lga qo‘yish.<br>3.Qizlarni ta’lim olishini davom ettirishiga ko‘maklashish. Ularning qiziqishlari asosida turli to‘garaklarga, o‘quv kurslarga jalb qilish va kasbhunarga o‘qitish. | 2025 yil dekabr doimiy | Oila va xotin-qizlar bo`limi, O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi, tuman Tibbiyot birlashmasi, Maktabgacha<br>ta’lim va maktab bo`limi, tuman hokimligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 10. | To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni ixcham va kamxarj o‘tkazish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini olib borish. | 1. Mahallalardagi yo‘nalish bo‘yicha jamoatchilik kengashlari ish faoliyatini takomillashtirish.<br>2. Nikohlanuvchi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh kelin-kuyovlarni o‘qitish jarayonlariga har ikkala tarafning ota-onalarini taklif etib borish.<br>3.Mahallalarda **“Qudalar suhbatlari”**ni yo‘lga qo‘yish. | 2026-yil<br>yanvar<br>doimiy | O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi, Oila va xotin-qizlar bo`limi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo`limi, Nuroniy jamg‘armasi, Tuman hokimligi |
| 11. | Tashkilot va korxonalardagi Maslahat kengashlari tomonidan mehnat jamoalaridagi ajrim yoqasidagi nizoli oilalar bilan ishlash tizimini joriy etish | 1. Mehnat jamoalaridagi ajrim yoqasidagi nizoli, muammoli oilalarni aniqlash.<br>2. Maslahat kengashlari hamda xotin-qizlar masalalari bo‘yicha mas’ullar bilan ularning muammolarini hal etish choralarini ko‘rish.<br>3. Erta tug‘ruq va erta nikohlarning oldini olish bo‘yicha mehnat jamoalarida targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etish.<br>4. Har chorak yakuni bilan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma’lumotlarni Oila va xotin-qizlar bo`limiga yuborish. | 2025-yil dekabr<br>doimiy<br>har chorakda | Oila va xotin-qizlar bo`limi, tegishli mutasaddi tashkilotlardagi maslahat kengashlari |
| 12. | Mahallalarda nikohlanuvchi yoshlar uchun “Vakil ota” va “Vakil ona”larni biriktirishni yo‘lga qo‘yish. Bunda:<br>- vakil ota-vakil ona yoshlarni kelgusi hayotlaridagi | 1. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish.<br>2. Mahallalardagi ibratli oilalar, hayotda o‘z o‘rnini topgan, namunali oilalar vakillari hamda obro‘-e’tiborli faol nuroniylarni ushbu loyihaga jalb etish. | 2025-yil dekabr | O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi,<br>Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br>Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tuman bo`limi, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | duch keladigan muammolarini hal etishda yaqindan yordam berishi;<br><br>-yoshlarning yaxshi hayot kechirishlarini doimiy nazorat qilishi;<br>-yoshlarga o‘z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib nasihatlar, maslahatlar berishi; | 3. Nizoli va ajrim yoqasidagi oilalarning muammolarini hal etishda vakil ota-vakil onalarning hayotiy tajribalaridan foydalanish. | doimiy | Nuroniy jamg‘armasi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi,<br>tuman hokimligi |
| 13. | Nikohlanuvchi yoshlarning nikohdan o‘tganlik guvohnomasini nikoh to‘yi kunida topshirilishini tashkil etish. | 1.Nikohlanuvchilarning “Oilaviy hayotga tayyorlash o‘quvlari”da o‘qiganlik sertifikatlarini elektron platforma orqali shakllantirish tizimini joriy etish.<br><br>2. Nikohlanuvchilarning nikoh guvohnomasini nikoh to‘yi kuni rasmiylashtirish bo‘yicha ishlarni takil etish. | 2026-yil yanvar<br><br>doimiy | Adliya bo`limi,<br>Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br>O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi,<br>tuman hokimligi |
| 14. | Imom-xatiblar tomonidan nikoh guvohnomasini olgandan so‘ng nikoh o‘qilishini majburiy tartib sifatida belgilash. | 1. Noqonuniy nikoh asosida yashayotgan oilalarning nikohini qonuniylashtirish choralarini ko‘rish.<br><br>2. Imom-xatiblar tomonidan faqat qonuniy nikoh guvohnomasini olgan fuqarolarning nikohini o‘qilishini qat’iy nazoratga olish.<br>Nikoh guvohnomasi bo‘lmagan fuqarolarning nikohini o‘qigan din ulamolariga nisbatan javobgarlik choralarini ko‘rish. | doimiy<br><br>doimiy | Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tuman bo`limi,<br>O‘zbekiston<br>Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi, Oila va xotin -qizlar bo`limi, Adliya bo`limi,<br>tuman hokimligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 15. | Oila va xotin-qizlar maskanlarida **“Nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy hayotga tayyorlash o‘quv kurslari”** samaradorligini oshirish.<br><br>**Oila huquqi, oila psixologiyasi, reproduktiv salomatlik, oila budjeti, otaonalik ijobiy ko‘nikmalari** va **ma’naviy-axloqiy qadriyatlar** bo‘yicha dasturlarni qayta ko‘rib chiqish va Oila va xotin-qizlar maskanlariga yetkazish. | 1.FHDYo organlari tomonidan 18-30 yoshdagi nikohlanuvchi shaxslarni Oila va xotin -qizlar maskanlariga to‘liq yo‘naltirish choralarini ko‘rish va o‘quv yakunlari bo‘yicha sertifikat olganlarni elektron bazaga kiritish, monitoringini olib borish.<br><br>2. Biriktirilagan mutaxassislarni reja asosida o‘quv mashg‘ulotlarida ishtirokini ta’minlash.<br><br>Har bir tumanda o‘quvlarda qatnashgan yoshlar ro‘yxatini elektron bazaga kiritish, o‘quv samaradorligi bo‘yicha Oila va xotinqizlar qo‘mitasi tomonidan tizimli monitoring o‘rnatish. | Har oyning 5-sanasiga qadar<br><br>reja-jadval asosida | Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br><br>Adliya bo`limi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo`limi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo`limi, Sog‘liqni saqlash bo`limi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tuman bo`limi, tuman hokimligi |
| 16. | Nikoh qurganiga 5 yil to‘lmagan oilalarga **“Oilaviy maslahat” tizimini** joriy etish.<br><br>Bunda:<br>-nikohdan ajralishga ariza bergan oilalar uchun korreksion dasturlar tuzish;<br><br>-iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish uchun tijorat banklari tomonidan loyihalar va | 1. Oila va xotin-qizlar maskanlaridagi o‘quvlar jarayonida anketalar orqali so‘rovlar o‘tkazish va ko‘makka muhtoj bo‘lgan yosh oilalarni aniqlash<br><br>2. Muammolarni aniqlashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish:<br><br>-shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish; | Har oy yakuniga ko‘ra<br><br>reja asosida<br><br>anketa so‘rovnoma o‘tkazish jarayonida | Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br><br>Yoshlar ishlari agentligi tuman bo`limi, O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo`limi, Adliya bo`limi, Sog‘liqni saqlash bo`limi, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | imtiyozli kreditlar taqdim qilish;<br>-tibbiy-reproduktiv madaniyatini rivojlantirish.<br>Ko‘makka muhtoj oilalarni xotin-qizlar faoli tomonidan **“Oila profili**”ga kiritish, “mahalla yettiligi” bilan birgalikda ularga **“kuzatuv dasturi**”ni tuzish. | -moliyaviy muammolar va barqaror daromad manbalari;<br>-yoshlarning sog‘lig‘i va ruhiy salomatligi;<br>-oilaning ijtimoiy sharoiti;<br>-tarbiya masalalarida tajribaning yetishmasligi.<br>3. Tijorat banklari va hokim yordamchisi tomonidan yosh oilaga rentabelli loyiha, ssuda yoki imtiyozli kredit taqdim qilish (Oila daromadga chiqquncha shu loyiha asosida ko‘mak berish).<br>4. Oila va xotin-qizlar maskanlarida ushbu oilalar uchun alohida korreksion dasturlar asosida o‘qishlar tashkil qilish.<br>5. Mahallalarda 40-50 yil birga yashagan oilalar, nuroniy otaxon va onaxonlar bilan ajrim yoqasidagi yosh oilalar, turmush qurish yoshidagi yoshlar ishtirokida **“Qo‘sha qarish saodati”** tadbirlarini tashkil etish.<br>6.Amalga oshirilgan ishlarni elektron “kuzatuv dasturi”ga kiritib, monitoringini yuritish. | har oyda<br>har oyda<br>har oyda | Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tuman bo`limi,<br>Nuroniy jamg‘armasi, Tijorat banklari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 17. | Nikohdan ajralishga ariza bergan oilalar uchun huquqiy psixologik xizmatlarni joriy etish.<br>Bunda:<br>-umumiy o‘rta ta’lim psixologlari;<br>-ichki ishlar bo‘limidagi huquqshunoslar hamda psixologlar;<br>-adliya bo‘limidagi huquqshunoslar;<br>-oliy ta’lim muassasalarining psixologiya yo‘nalishidagi talabalaridan foydalanish. | 1.**“Oila va xotin-qizlar maskanlari”**da nikohdan ajralishga ariza bergan oilalarga huquqiy psixologik xizmatlar ko‘rsatish tizimini tashkil etish.<br>2.Huquqshunos va psixologlarni mahallalarga biriktirish. | doimiy | Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br>O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi, Adliya bo`limi, Maktabgacha va maktab ta’limi tuman bo`limi, Ichki ishlar bo`limi, tuman hokimligi |
| 18. | Oilaning mustahkamligi, farzand tarbiyasida ota-onalar mas’uliyatini oshirish bo‘yicha<br>**“Otalar maktabi”** hamda **“Onalar maktabi”** loyihalarini **“Oila va xotin-qizlar maskanlari”**da tashkil etish.<br>Bunda: -farzand ko‘rish uchun birga qaror qabul qilish;<br>qonunchilikda ota-ona | 1. **“Oila va xotin-qizlar maskanlari”**da tashkil etiladigan **“Otalar maktabi”** hamda **“Onalar maktabi”** loyihasi bo‘yicha konsepsiya va dastur ishlab chiqish.<br>2. Tadbirlarni amalga oshirishda psixologlar, nuroniylar, diniy soha vakillari, sog‘liqni saqlash va boshqa tegishli mutaxassislarni jalb etish.<br>3.Loyihani tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish va monitoring qilish. | 2026-yil yanvar<br><br>reja-jadval asosida | Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br>O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo`limi, Din ishlari bo‘yicha tuman bo`limi, Adliya bo`limi,<br>tuman Tibbiyot birlashmasi, Maktabgacha va maktab ta’limi bo`limi, Ichki ishlar bo`limi, tuman hokimligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | majburiyati; “ota-onalik mas’uliyati”; sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish. | | | |
| 19. | Tegishli mutasaddi tashkilotlar, xo‘jalik birlashmalarining mehnat jamoalarida **“Sog‘lom oila - sog‘lom jamoa”** loyihasini amalga oshirish. | 1. **“Sog‘lom oila-sog‘lom jamoa”** loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqish va idoralarga, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan mehnat jamoalariga,tadbirkorlik sub’ektlariga yetkazish.<br>2. Konsepsiya doirasida 2026-yil uchun oilalarni mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va ijroga qaratish.<br>3. Maslahat kengashlari mehnat jamolaridagi ajrim yoqasidagi nizoli, muammoli oilalarni muammolarni hal etish.<br>4. Namunali oilalarni targ‘ib qilish, oilalar mustahkamligiga qaratilgan tanlovlar va rag‘batlantiruvchi tadbirlar o‘tkazish.<br>5.Amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma’lumotlarni Oila va xotin-qizlar bo`limiga umumlashtirish uchun taqdim qilish. | 2026- yil yanvar<br>2026-yil yanvar<br>har oyda reja-jadval asosida<br>har chorakda | Oila va xotin-qizlar bo`limi,<br>Adliya bo`limi, Sport bo`limi, tegishli mutasaddi tashkilotlar |